

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA
YAKUNIY HISOBOT



TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60910600 – Oliy hamshiralik ishi
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60910600 – Oliy hamshiralik ishi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260044
Xulosa raqami	648-son
Xulosa sanasi	2026-yil 1-iyun
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"Toshkent farmatsevtika instituti" davlat muassasasi
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qoraqamish 2/5-mavze, 17A-uy; guvohnoma № 03-000064, 05.07.1993-yil
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Oliy hamshiralik ishi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60910600
Akkreditatsiya usuli	masofaviy
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	Toxtayeva Dono Maxmudjonovna – Toshkent davlat tibbiyot universiteti; ekspert komissiyasi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 03-000064 / 05.07.1993
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60910600 – Oliy hamshiralik ishi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60910600 – Advanced Nursing
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60910600 – Высшее сестринское дело
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek, rus
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Oliy hamshiralik ishi mutaxassisi
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	365 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qoraqamish 2/5-mavze, 17A-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Qisman muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq). O'tkazilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, 60910600 – “Oliy hamshiralik ishi” ta'lim dasturi bo'yicha tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash tizimi strategik, tizimli va zamonaviy yondashuv asosida shakllantirilmoqda.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq). Muassasa tomonidan amalga oshirilayotgan 60910600 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim dasturi milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar, Davlat ta'lim standartlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tegishli buyruqlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy hamshiralik ta'limining milliy va xalqaro talablariga mos ravishda tashkil etilganligi aniq dalillar bilan tasdiqlandi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq). Oliy ta'lim muassasasi 60910600 – Oliy hamshiralik ishi ta'lim dasturi doirasida o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash tizimi bo'yicha milliy va xalqaro talablar asosida shakllantirilgan, tizimli hamda sifatga yo'naltirilgan yondashuvni namoyish etadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq). Talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida ta'lim muassasasida talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning akademik, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy hamda ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan tizimli faoliyat yo'lga qo'yilgani aniqlandi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq). Inson resurslari yo'nalishi bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, institutda kadrlar salohiyatini shakllantirish, boshqarish va rivojlantirish jarayonlari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda zamonaviy boshqaruv tamoyillari asosida tizimli ravishda yo'lga qo'yilgan.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofiq). Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasida institutda ta'lim jarayonini samarali

tashkil etish, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun zamonaviy o'quv muhitini yaratish hamda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi moddiy-texnik baza yetarli darajada shakllantirilgani aniqlandi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun Brayl alifbosidagi kitoblar va ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlanganlik to'liq tasdiqlanmagan (6.4-mezon qisman muvofiq).

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun Brayl alifbosidagi kitoblar va ko'rgazmali materiallar bilan ta'minlashni rejalashtirish va hujjatlashtirish tavsiya etiladi.
- ✓ Klinik amaliyot bazalari va simulyatsiya laboratoriyalarini yanada kengaytirish tavsiya etiladi.
- ✓ Talabalarning amaliy va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish tavsiya etiladi.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Yakuniy xulosa "Toshkent farmatsevtika instituti" davlat muassasasining 60910600 – Oliy hamshiralik ishi bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda asoslovchi materiallar tahlili asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha o'tkazildi.

O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish muvofiq deb baholandi; mezonlar orasida ayrimlari (6.4) qisman muvofiq deb topildi.

Aniqlangan kamchiliklar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular o'quv jarayonini takomillashtirish hamda hujjatlashtirishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar asosida bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 60910600 – Oliy hamshiralik ishi bakalavr ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofig deb baholandi**.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	2026-yil 5-iyun
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

